MUZYORAR- INTERFAOL USULINI «GERMANIY GURUXCHASI ELEMENTLARI» MAVZUSIGA TATBIQ ETISH

Umirova Nilufar Omonboyevna - Guliston davlat universiteti katta o‘qituvchi PhD,.
Lapasova Feruza Abdullayevna- Guliston davlat universiteti o‘qituvchi

XXI asrda O‘zbekiston ta’lim tizimini isloh qilish va takomillashtirish ustivor vazifalardan biridir. Bu esa, o‘z navbatidafizik olimlarimiz zimmasiga tegishli o‘quv fanlari bo‘yicha o‘quv adabiyotlarini hozirgi davr talabi va ilm-fanning so‘nggi yutuqlarini hisobga olgan holda yangilab borish, ta’lim jarayoniga innovatsiya va ta’lim texnologiyalarini joriy etishni taqozo etmoqda.

Ma’lumki mamlakatimiz oliy ta’lim muassasalarida organik kimyo fanini o‘qitish jarayonida innovatsiyalar va ilg‘or xorijiy tajribalarni qo‘llash bugungi kunning dolzarb masalaridan biri xisoblanadi.

“Avvalo fandagi yangilik nima?”, “Fandagi innovatsiya nima?” degan savollarga javob berish lozim. Bugungi kunda amaliyotda yangilik va innovatsiya so‘zlari o‘rtasida farqlar mavjud. Yangilik bu fandagi eng so‘nggi yutuqlar, bilimlar, usullar xisoblanadi. Ushbu yutuqlar, bilimlar, usullar amalda qo‘llanilishi bilan innovatsiyaga aylanadi.

Anorganik kimyo fanini o‘qitishda bugungi kunda rivojlangan xorijiy mamlakatlarda quidagi innovatsiyalar va ta’lim texnologiyalari qo‘llanilmoqda.

Interaktiv o‘qitish texnologiyalari.

1. Ma’lumotli ma’ruza.
2. Ko‘rgazmali ma’ruza.
3. Karusel.
4. Kichik guruhlarda ishlash.
5. Akvarium.
6. Tugallanmagan so‘zlar.
7. Aqliy xujum.
8. Yechimlar daraxti.
9. Binarli ma’ruza.
10. Anjumanli ma’ruza.
11. Ishbilarmonlik o‘yinlari.
12. Rolli o‘yinlar.
13. Matbuot anjumani.
14. O‘z pozitsiyasini egallash.
15. Diskussiya.
16. Debatlar va xokazolar.
17. Baliq suyagi
18. Raqibingni tanla.
19. Venn diagrammasi.
20. Krossvord....

Muzyorar – muomaladagi tusiqlarni yengib o‘tishga va o‘zaro munosabatlardagi «muzni» yorishga qaratilgan mashqdir. Muzyorar, birinchidan, tanishuv jarayonini rivojlantiradi, ikkinchidan, ishtirokchilarni o‘zini bemalol his qilishlariga yordam beradi.

Treninga kirish jarayonida har bir ishtirokchi o‘zini tanishtiradi. Auditoriyadagilarning sonidan, kurs boshida umumiy kayfiyatidan va boshqa holatlardan kelib chiqib, trener quyidagi tanishuv usullarini tanlashi mumkin:

- Juftliklarda besh daqiqalik suxbat, so‘ngra har bir ishtirokchi o‘zining suhbatdoshini tanishtiradi va «Germaniy guruxchasi elementlaridan » birortasini tanlaydi. Masalan, “Qo‘rg‘oshin shakari” formulasini qog‘ozchaga yozadi. $Pb(CH_3COO)_2$

- Doirada koptokcha bilan o‘ynash - bunda qo‘liga koptokcha tushgan har bir ishtirokchi o‘z ismini hamda o‘zi tanlagan birikma haqidagi ma’lumotni aytishi kerak bo‘ladi.

- O‘xshash va o‘xshash bo‘lmagan xususiyatlarini top. Agar trening vaqti kam chegaralangan bulsa, tanishuvning kengroq shakllaridan foydalanish mumkin. Masalan, trening ishtirokchilarini 5-6 ta ishtirokchidan iborat kichik guruhlarga bo‘lib, har bir guruhga guruh a’zolarini o‘zaro bog‘laydigan 3 yoki 5 ta umumiy o‘xshash xususiyatlarni yoki hammada har xil bulgan 3 ta xususiyatni topish topshirig‘i beriladi. Bunda germagniy guruxchasi elementlarini 3ta guruxchaga bo‘lib, fizxik va kimyoviy xossalarini aytishlari lozim. So‘ngra guruhlar barcha guruh ishtirokchilarining ismini aytib, topshiriq natijasini taqdim etadilar.

Guruhlar faoliyati natijalarini baholash mezonlar

Ko‘rsatkichlar	Maks. ball	Guruh ishi natijalarining bahosi			
		1	2	3	4
Ma’lumotni aniqligi va to‘liqligi	1,0				
Guruhning faollik darajasi (qo‘shimchalar kiritish, savollarga javoblarni to‘g‘ri berish)	0,6				
Hamkorlikda o‘qishning asosiy qoidalariga rioya etilishi	0,4				
O‘rtacha					

Guruhlar faoliyati natijalarining umumiy bahosi

Guruh	O‘zaro baholash natijalari				Jami
	1	2	3	4	
1	*				
2		*	*	*	
3					
4					

Bu usul talabalar uchun qiziqarli bo‘lib, ular o‘zlarini o‘qituvchidek xis qilishadi. Uyga oldindan mavzu berib yuboriladi. Tayyorlanib kelgan talaba shu mavzuni gapirib tushuntirib beradi. Qo‘lidan kelgancha tajriba xam qilib ko‘rsatadi. U o‘rtoqlariga mavzu yuzasidan tushunchalarni beradi. Boshqa o‘quvchi shu mavzuga doir tajriba ko‘rsatadi.

Bu texnologiya bugungi kunda rivojlangan xorijiy mamlakatlarning jumladan, Amerika Qo‘shma shtatlari, Germaniya, Yaponiya va Rossiya davlatlarining oliy ta’lim muassasalarida ta’lim va tarbiya jarayonlarini tashkil etishda keng qo‘lanilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. N. A. Parpiyev, H. Rahimov, A. G. Muftaxov. Anorganik kimyoning nazariy asoslari. T.,”Ozbekiston”, 2002.

2. N.A.Parpiyev, A.G.Muftaxov, H.R.Rahimov. Anorganik kimyo”O’zbekiston”, 2003.

3. М. Камолиддинов, Б. Вахобжонов, Инновацон педагогик технологиялари асослари, Тошкент, 2010.

4. Б.Ходиев, Л.В. Голишев, Д.Хошимова, Мустакил укув фаолиятини ташкил этиш усул ва воситалари, Тошкент, 2011.